



# XORIJY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

## ZAMONAVIY AQSH ADABIYOTI TENDENSIYALARI

Xayrulloeva Sitora Lutfulloyevna,  
BuxDU 2-bosqich tayanch doktoranti

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15183834>

**Annotatsiya:** *psixologik realizm –adabiy obrazlar ongi orqali haqiqatni his qilish, tafakkur qilish va boshidan o'tkazishning badiiy uslubidir.<sup>1</sup> Tajriba va tafakkur ong va haqiqat o'rtasidagi ko'prikkaga aylanadi. Hayot adabiy qahramonlarning hissiy kechinmalarini o'zida jamlagan ruhiy haqiqatga aylanadi hamda ong va reallik o'rtasida aloqa barqaror saqlanib qoladi. Xuddi shu asosda psixologik realizmning o'ziga xos ifoda tendensiyalari shakllandi. Psixologik realizm botinam modernizmga o'xshasada, aslida u realizmdan kelib chiqqan.*

**Kalit so'zlar:** *psixologik realizm, modernizm, ruhiy holat, psixoanalitik tahlil*

**Аннотация.** *Психологический реализм — художественный метод ощущения, мышления и переживания действительности посредством сознания литературных образов. Опыт и мышление становятся мостом между сознанием и реальностью. Жизнь становится духовной реальностью, включающей в себя душевные переживания литературных героев, а связь сознания и реальности остается устойчивой. На этой же основе сформировались специфические экспрессивные тенденции психологического реализма. Хотя психологический реализм внутренне похож на модернизм, на самом деле он произошел от реализма.*

**Ключевые слова:** *психологический реализм, модернизм, психическое состояние, психоаналитический анализ*

**Abstract.** *Psychological realism is an artistic method of feeling, thinking and experiencing reality through the consciousness of literary images. Experience and thinking become a bridge between consciousness and reality. Life becomes a spiritual reality, including the spiritual experiences of literary heroes, and the connection between consciousness and reality remains stable. Specific expressive tendencies of psychological realism were formed on this basis. Although psychological realism is internally similar to modernism, in fact it originated from realism.*

**Key words:** *psychological realism, modernism, mental state, psychoanalytic analysis*

**Kirish.** Genri Jeyms realizmdan modernizmga o'tish davri namoyondasi hisoblanadi. Uning adabiy asarlari ham realizm ham modernizm an'alarini o'zida mujassam etgan. Zamonaviy nasr nazariyasi asoschisi sifatida Genri Jeyms asarlaining badiiy xususiyatlari doimo adabiy tanqidchilar e'tibor markazida bo'lgan.

Yuqorida psixologik romanlar realizm janridan shakllanligi aytib o'tildi. Darhaqiqat ularda tashqi dunyoning xolis haqiqatini ochib berish an'alariga xolis qolib, asar qahramoni ruhiy tasviriga alohida e'tibor berilgan hamda ijtimoiy ruh

<sup>1</sup> Jie Chen Research on Henry James and His Psychological Realism Novels The Frontiers of Society, Science and Technology ISSN 2616-7433 Vol. 3, Issue 4: 77-81, DOI: 10.25236/FSST.2021.030412 .,P77.



# XORIJY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

*mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani*

aynan badiiy personajlar ichki dunyosi orqali ochib berilgan. Bu kabi asarlarning o'ziga xos xususiyatlari sifatida quyidagilarni sanab o'tish mumkin.

1. Garchi asar qahramonining ichki ruhiy kechinmalari asar uchun asos bo'lib xizmat qilsa va protogonist (asari bosh qahramoni)ning <sup>2</sup> ruhiy o'zgarishlari va rivojlanishi asar uchun asosiy belgi hisoblansada, asar syujeti hali ham muhim ahamiyat kasb etadi. Syujet asar qahramoni mentalitetini ochib berishga xizmat qiladi va shu paytning o'zida qahramonlar hissiyotlarini va ulardagi murakkab psixologik jarayonlarni ifodalaydi. Boshqacha qilib aytganda, bu turdagi asarlarda tuzilmaviy garmoniya (o'zaro mutanosiblik)<sup>3</sup> bo'ladi.

2. Asar bosh qahramonining o'z-o'zini anglash evolutsiyasiga alohida e'tibor qaratisa va tashqi dunyoni idrok etishda asardagi obrazlarning subyektiv yondashuvi asos bo'lib hisoblansada, asiyat inkor etilmaydi. Aksincha, asar va hayot o'rtasidagi aloqaga urg'u beriladi, haqiqiy hayotdagi qismatlarda e'tibor qaratilib asiyatdadi o'zgarishlar va rivojlanishlar bilan asar qahramonlarining subyektiv hissiyotlari muvofiqlashtiriladi. Don Delilloning "Falling Man" asarida bosh qahramoni Keit o'limiga bir bahya qolgan paytda, ko'z o'ngida sodir bo'lgan daxshatli hodisalar ta'sirida chuqur ruhiy jarohat oladi va qayta o'zining odatiy hayotiga qayta olmaydi. Bu o'rinda 9/11 <sup>4</sup> hodisasidan chuqur iztirobga botgan har bir personaj psixikasidagi o'zgarishlar ochib berilgan bo'lib, ularning subyektiv qarashlariga ko'ra hayot o'sha mudhish 11-sentabr sanasida "qotib qoldi". Ammo, asiyatda esa, hayot hali davom etmoqda, dunyo o'zgarmoqda.

3. Zamonaviy romanchilik uslublarini o'zida mujassamlashtiradi. Masalan, ong oqimi yoki fleshbek singari. Hattoki ong osti hlatlari tasviri ham keltirilishi mumkin lekin doimo asarda yozuvchining ongli qarashiga alohida e'tibor beriladi, shu tariqa, badiiy asarda yozuvchining qahramonlar ruhiyyatini tasvirlashga urunishi ikki tomonlama bo'lib, unda aql va hissiyot o'rtasida muvozanat saqlanadi, ko'r -ko'rono mantiqsizlikka ergashilmaydi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, AQSh psixologik romanlarining shakllanishi va rivojlanishi Genri Jeyms nomi bilan chambarchas bog'liq. Boshqa barcha psixologik romannavislarga nisbatan Genri Jeymsning adabiyotga qo'shgan hissasi ajralib turadi.

Uning asarlari xususiyati 4 jihatdan ustuvordir<sup>5</sup>

<sup>2</sup> <https://www.merriam-webster.com/dictionary/protagonist>

<sup>3</sup> <https://www.merriam-webster.com/dictionary/harmony>

<sup>4</sup> 2001-yil, 11-sentabr Al-Qoida tomonidan Jahon Savdo Markazining qulatilishi

<sup>5</sup> Jie Chen Research on Henry James and His Psychological Realism Novels The Frontiers of Society, Science and Technology ISSN 2616-7433 Vol. 3, Issue 4: 77-81, DOI: 10.25236/FSST.2021.030412 .,P 78



# XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

*mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani*

1. Psixologik realizm yartilish nazariyasi sodiq qoldi, shunchaki murakkab va asl hayotiy kechinmalarni tasvirlar ekan badiiy asar shakli go'zalligi ask ettirdi. Uning asarlarida noodadiy yoki esankiratib qo'yuvchi hodisalar deyarli uchramaydi, ammo ularni esda qolarli qiladigan narsa bu hodisalarga bo'lgan psixologik reaksiyalardir.

2. U ajoyib adabiy tandiqchi bo'lish bilan bir qatorda noyob adaviyot nazariyasini ham yarata olgan shaxsdir. U adabiy asar va hayot o'rtasidagi aloqaga ahamiyat berib, romanlarni "*hayotning shaxsiy bevosita talqini*"<sup>6</sup> deb hisoblaydi. Uning asarlaridagi personajlar harakati juda ham kam bo'lib, ularning hissiyoti, o'y-fikrlari asosan dialoglar, ruhit faoliyatlar va batafsil tasvirlashlar orqali namoyon bo'ladi.

3. Bundan tashqari, u an'anaviy nasr yozish uslublarini isloh qilib, an'anaviy realizmning ruhiy tavsif metodini o'zlashtirib, uni keying darajaga olib chiqdi va noyob psixologik tavsif uslubini yaratdi. "Onglilik mazkazi"ni hikoya qilish texnikasiga olib chiqdi va bu asar yozuvchisi nuqtayi nazarini asosiy qilib oladigan uchunchi shaxs yoki avtobiografik birinchi shaxs hikoyachi uslublarini tom ma'noda sindirdi.

4. Ong oqimi uslubi psixologik romanlarga tegishli ekanligi ma'lum. Ammo Genri Jeyms qahramon ruhiyati ifodasida boshqacha tasvir uslublaridan foydalandi ong ostida sodir bo'ladigan ruhiy jarayonlar o'rniga qahramonlarining ong ustiga e'tibor berdi. Uning psixologik asar qahramonlarini tasvirlashning noyob uslubi, ong oqimi adabiyoti romannavislariga ulkan ta'sir ko'rsatdi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Patrice D. Rankine (2005) *Passing as Tragedy: Philip Roth's The Human Stain, the Oedipus Myth, and the Self-Made Man*, Critique: Studies in Contemporary Fiction, 47:1, 101-112, DOI: 10.3200/CRIT.47.1.101-112
2. Lutfulloyeva, X. S. (2023). INTERPRETATION OF HORROR GENRE IN WORKS OF EDGAR ALLAN PO. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 11(9), 128-134.
3. Lutfulloyeva, X. S., & Shahrizoda, B. (2023). THE THEMATIC ANALYSIS OF "THE GARDEN PARTY". *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 11(9), 135-139.
4. Lutfulloyeva, X. S., & Parvina, B. (2023). THE THEMATIC ANALYSIS OF "THE MARK OF THE BEAST". *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 11(9), 118-122.
5. Lutfulloyevna, K. S. (2023). THE NOTION OF TRAUMA AND IDENTITY IN "THE AMERICAN PASTORAL" ABSTRACT. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 9(3), 78-85.
6. Lutfulloyevna, X. S. (2023). ZAMONAVIY AMERIKA ROMANLARIDAGI PSIXOLOGIZMLAR VA RUHIY JAROHAT. *TA'LIM VA INNOVATSION TADQIQOTLAR*, 11, 37-40.

<sup>6</sup> Jie Chen Research on Henry James and His Psychological Realism Novels *The Frontiers of Society, Science and Technology* ISSN 2616-7433 Vol. 3, Issue 4: 77-81, DOI: 10.25236/FSST.2021.030412 .,P 78